



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 12 (14)
2025**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 12-son 2025 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

12

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Редкоземельные металлы в новой геоэкономике: глобальные стратегии и приоритеты развития республики Узбекистан.....	7
Tursunov A.M. Совершенствование экономических механизмов функционирования отрасли.	18
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida reklama faoliyati samaradorligini aniqlashning uslubiy jihatlari.....	21
Axunov M.A. Korxonalarda raqobatbardoshlikni baholash uchun tanlangan omillar.....	24
Исраилова Д.К. “Аёллар дафтари” маҳаллабай тизими - аёллар бандлиги ва фаровонлигини таъминлаш омили сифатида.....	28
Шокирова Г.М. Критерии разделения целевой аудитории в сфере цифрового маркетинга.....	33
Vaxtobunova D.N. Bank omonatlari bo‘yicha marketing strategiyalari va ularning real daromadlikka ta’siri.....	36
Xasanova X.F. Investitsilar hisobiga asoslangan xolatda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tashkil etish tartibi.....	41
Бегимова Д.К. Разработка отраслевых стратегий в Узбекистане.....	45
Mirzayev B.S. CBDC joriy etilishining moliyaviy barqarorlikka ta’siri: imkoniyatlar va xatarlar....	50
Mirzarahimova A.A. Raqamli texnologiyalar asosida sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari.....	53
Азимов О.Т. Ҳалол молиялаштириш инструменти сифатида мурабаха: анъанавий кредит билан қиёсий таҳлил.....	56
Халмирзаев А.А. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ихтисослашувини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари.....	62
Шоабдурахимова М.М. Повышение производственной эффективности на предприятиях электронной промышленности на примере Artel Electronics (Узбекистан).....	68
Xolmuratov O.T. Futbol maktablarimiz rivojlanishida xorij mamlakatlari menejmenti va marketingi tajribasi.....	72
Yarashev M.O., Nabieva S.A. Aksiyadorlik jamiyatlarini asosiy va moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari.....	76
Кабилова К. Тадбиркорлик соҳасида коррупциянинг олдини олиш амалиётининг бугунги ҳолати таҳлили.....	80
Махмудова С. Бюджет соҳасини коррупциядан ҳимоя қилишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий чоралари.....	85
Захидова Ш.Ш. Университет барқарорлигини таъминлашда унинг фаолиятини халқаро стандартларга мос келадиган тартибда такомиллаштириш.....	89
Saidaxmedov N.X. Raqamli texnologiyalar asosida engil sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish mexanizmlari.....	97
Усманова С.С. Влияние государственной поддержки и регулирование на развитие инноваций на промышленных предприятиях.....	100
Madrahimov U.A. Iqtisodiy o‘shish va kapitaldan samarali foydalanishni optimallashtirish yo‘nalishlari.....	104
Джалилов Д.А. Капиталнинг ялпи ички маҳсулотдаги улушини баҳолаш.....	108
Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность как медиатор трансформационного экономического роста: теоретические основы.....	111
Mahmudov Sh.N. Location and development of industrial sectors in the regions.....	115
Ustadjalilov D.R. O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirishning institutsional asoslari transformatsiyasi: direktiv modeldan bozor tamoyillariga.....	119
Гайбуллаев Ф. Олий таълимда коррупцияга ўрин бўлмаслиги керак!.....	125
Abdurazakova F.D., Normurodov X.E. Aholi moliyaviy savodxonligi va moliyaviy madaniyati o‘rtasidagi oshirish imkoniyatlarini baholash.....	129
Muxtarov M.M. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida sanoat klasterlarini shakllantirish modellari: O‘zbekiston uchun istiqbollar.....	136
Ro‘zmatov B.Z., Shodiyeva N.H. Turistik infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba va uning taqqoslovchi tahlili.....	140

Rahmatova N.A., Mustafayeva H. O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimining muammolari va hal etish yo‘llari.....	147
Ахмедов Х. Тинчлик ва хавфсизлик — барқарорлик, иқтисодий ўсиш ва фаровонлик гарови.	154
Boboyev A.Ch. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari.....	159
Исраилов З.А. Яшил иқтисодиёт технологиялари: халқаро тажриба ва қиёсий таҳлил.....	165
Ikromov A.Sh. Mahalliy korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....	169
Ҳалмирзаев А.А., Қодиров Б.Ш. Ёшлар бандлигини таъминлашнинг хорижий тажрибалари.....	175
Elmurodov Sh.Sh. A framework for integrating fiscal risks into the assessment of regional financial security.....	183
Axmadjonov S.S. Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab – quvvatlashni baholash mezonlari.....	188
Sabirova Z.U. Sanoat va sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilishga uslubiy yondashuv.....	192
Pardayev T.N., Alimuxamedov Sh.R. Chetdan olib kelinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashni takomillashtirishning ayrim masalalari.....	197
Кадыров А., Исхаков А.К., Турсунова Н.Х. Реализация механизма стратегического управления акционерного общества «Узавтосаноат» на основе прогнозирования его развития.....	203
Zoxidov T.M. Moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazishning muammolari va yechimlari.....	211
Nabiyeva N.M. Turizm xizmatlari bozorida hududiy destinatsiyalar samaradorligini o‘rganish.....	216
Sharofiddinov Sh.U. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mhxs asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni axborot manbai sifatidagi afzalliklari.....	221
Nurmatov Z.Sh. O‘zbekiston respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning iqtisodiy ahamiyati va amaliy dolzarbligi.....	225
Содиқов А.М., Зокиров С.С. Саноатни модернизациялаш ва диверсификациялашнинг янги стратегияси.....	230
Narmanov U., Ikromova S. Fond bozorlariga xorijiy investorlarni jalb qilishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari.....	238
Qutbiddinov A.B. Samarali faoliyat imkoniyatlarini amalga oshirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasi va uni oshirish imkoniyatlari.....	241
Qayumova Sh.S. Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar va ularni oshirishning vertikal integratsiya asosidagi optimallashtirilgan modeli.....	246
Turebekov A.A. Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy sifatining tahlili.....	252
Kurbanova M.N., Azizov A.A. Qadimgi klassik iqtisodiy maktablarning shakllanishi va ularning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta‘siri.....	255
Samadova G.S. O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘shishga ta‘siri.....	259
Абдуллаева Р. Инклюзив тадбиркорликнинг моҳияти ва хориж тажрибаси.....	264
To‘uchiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqarishning dolzarbligi.....	268
Amnah Saeed J Alhindi The role of financial resources in ensuring corporate financial stability.....	272
Fayziyev O.R. O‘zbekistonda baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishning hududiy va tarmoq xususiyatlari.....	276
Алимов Р.А., Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность и искусственный интеллект: многоуровневая модель и фигура нового интеллектуала.....	280
Teshayev Z.J., Muxitdnov Sh.X. Logistika xizmat ko‘rsatish korxonalarini resurslaridan foydalanishning hududiy iqtisodiy rivojlanishiga ta‘siri.....	284
Xaydarov X.U., Raxmonov D.R. 1907-yilgi moliyaviy inqiroz: sabablari, kechishi va jahon moliya tizimiga ta‘siri.....	288
Солижонов М.А. Ўзбекистон монетар сиёсатининг савдо балансига таъсирини баҳолаш....	292
Rejarov X.X. Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlari.....	297

yaxlitligini rag‘batlantirish orqali mamlakatlar iqtisodiy o‘shish va farovonlikni oshirish uchun fond bozorlarining to‘liq imkoniyatlarini ochishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
2. Benjamin Graham THE INTELLIGENT INVESTOR—Revised Edition. Copyright © 1973 New material: Copyright © 2003 by Jason Zweig. A. Publisher: Harper Business; Subsequent edition (February 21, 2006) | Language: English | Paperback: 640 pages | ISBN-10: 0060555665
3. The Warren Buffett Way - Robert G. Hagstrom. Publisher: John Wiley & Sons Inc; 3rd edition (January 1, 2013) | Language: English | Hardcover: 281 pages | ISBN-10: 1118503252 | ISBN-13: 978-1118503256
4. United Nations Conference on Trade and Development: World investment report 2023.
5. <https://www.lex.uz>
6. <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023>

UDK: 331.1

SAMARALI FAOLIYAT IMKONIYATLARINI AMALGA OSHIRISHDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILIYATLARIDAN FOYDALANISH DARAJASI VA UNI OSHIRISH IMKONIYATLARI

УРОВЕНЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАВЫКОВ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ПЕРСОНАЛА ПРИ РЕАЛИЗАЦИИ ЭФФЕКТИВНЫХ ОПЕРАТИВНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО ПОВЫШЕНИЯ.

THE LEVEL OF USE OF MANAGEMENT PERSONNEL'S SKILLS IN IMPLEMENTING EFFECTIVE OPERATIONAL CAPABILITIES AND POSSIBILITIES TO INCREASE IT

Ayubxon Qutbiddinov Bosit o‘g‘li
Namangan Davlat Texnika Universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada korxonalar samarali faoliyatini ta‘minlashda boshqaruv xodimlari qobiliyatlarining tutgan o‘rni, ularni baholash mexanizmlari hamda kompetensiyalar darajasini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy boshqaruv konsepsiyalariga tayangan holda, korxonalarda inson resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: boshqaruv xodimlari, kompetensiya, samarali faoliyat, boshqaruv salohiyati, menejment usullari, strategik boshqaruv.

В данной статье анализируется роль способностей управленческого персонала в обеспечении эффективной деятельности предприятия, рассматриваются механизмы их оценки, а также возможности повышения уровня компетенций. На основе современных концепций менеджмента разработаны подходы, направленные на повышение эффективности использования человеческих ресурсов в организациях.

Ключевые слова: управленческий персонал, компетенции, эффективная деятельность, управленческий потенциал, методы менеджмента, стратегическое управление.

This article analyzes the role of managerial staff competencies in ensuring effective enterprise performance, the mechanisms for assessing their capabilities, and opportunities for enhancing

competency levels. Based on modern management concepts, approaches aimed at improving the efficiency of human resource utilization in organizations are developed.

Keywords: managerial staff, competency, effective performance, management capacity, management methods, strategic management.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashda inson omili, ayniqsa boshqaruv xodimlarining salohiyati eng muhim strategik resurs sifatida qaralmoqda. Korxonada faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan rahbarlar va boshqaruv xodimlarining qobiliyati, kasbiy mahorati, tajribasi hamda liderlik ko'nikmalariga bog'liq bo'lib, ular tomonidan qabul qilinadigan qarorlar korxonaning qisqa va uzoq muddatli rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi.

Boshqaruv jarayonlarining murakkablashib borayotgani, global raqobat, texnologik o'zgarishlar va bozor talablarining keskin o'zgaruvchanligi korxonalaridan yuqori moslashuvchanlikni, menejerlardan esa yangicha fikrlash va innovatsion yondashuvni talab qilmoqda. Shu bois boshqaruv xodimlari salohiyatidan ongli, tizimli va maqsadli foydalanish korxonaning samarali faoliyat yuritishida hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

Zamonaviy korxonalar misolida shuni ko'rish mumkinki, inson resurslarini samarali boshqarish strategik ustunlikning asosiy manbai sifatida namoyon bo'lmoqda. Xodimlarning bilim va malakasini rivojlantirish, ularning tashabbuskorlik darajasini oshirish, o'rganishga va o'zgarishga tayyor jamoalarni shakllantirish korxonada ichki imkoniyatlarini real natijalarga aylantirish yo'lidagi muhim omillardandir.

Shu bilan birga, ko'plab korxonalarda boshqaruv xodimlarining qobiliyatlaridan to'liq foydalanish imkoniyatlari yetarlicha ishga solinmayotgani kuzatiladi. Kompetensiyalarni baholash tizimining yetishmasligi, motivatsiyaning pastligi, malaka oshirish imkoniyatlarining cheklangani, zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanishning sustligi mavjud salohiyatning to'liq namoyon bo'lishiga to'sqinlik qilmoqda.

Shu sababli boshqaruv xodimlari kompetensiyasini rivojlantirish, ulardan foydalanish darajasini oshirish, korxonada strategik boshqaruv madaniyatini shakllantirish, inson resurslarini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish zarurati bugungi kunda juda dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Menejment nazariyasi va boshqaruv xodimlari kompetensiyalariga oid ilmiy tadqiqotlarda yetakchi xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlari mavjud bo'lib, ular korxonada samaradorligini oshirishda inson resurslarining rolini alohida ta'kidlab o'tadi.

P. Druker o'zining boshqaruv nazariyasiga oid asarlarida rahbarning asosiy vazifasi mavjud resurslardan maksimal natija olish uchun oqilona qaror qabul qilish ekanligini qayd etadi. Uning fikricha, samarali menejer — bu avvalo, o'z jamoasi imkoniyatlarini to'liq ishga solib, strategik maqsadlarni aniq belgilay oladigan shaxsdir. Druker boshqaruvni “amal qilish san'ati” sifatida talqin qilib, bilim va qobiliyatlarning uyg'unligi korxonaning raqobatbardoshligini belgilashini ta'kidlaydi.

I. Nonaka va H. Takeuchi tomonidan ilgari surilgan “bilimlarni yaratish va boshqarish” konsepsiyasi korxonada intellektual kapitalning ahamiyatini asoslab beradi. Ularning fikriga ko'ra, xodimlarning ijodkorligi, bilim va malakasi, tajribasi hamda ularni boshqarish jarayoni korxonada uchun eng katta aktiv hisoblanadi. Ayniqsa, innovatsion g'oyalarni tizimli boshqarish orqali korxonalar o'z salohiyatini sezilarli darajada oshirishi mumkinligi ta'kidlanadi.

G. Hofstede esa korxonada boshqaruvida madaniy qadriyatlar, xodimlarning mental xususiyatlari, milliy madaniyat va tashkilot ichki madaniyatining ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadi. Uning tadqiqotlari madaniyat boshqaruv uslubini shakllantirishda muhim omil ekanligini, rahbarning qaror qabul qilish jarayoniga xodimlarning madaniy xulq-atvori sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Bu ayniqsa ko'p millatli yoki hududiy farqlarga ega korxonalarda dolzarb hisoblanadi.

Zamonaviy boshqaruv fani asoschilaridan biri R. Daft rahbarning analitik salohiyati, tashkiliy ko'nikmalari va strategik fikrlashi korxonada rivojlanish sur'atlarini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, raqobat keskinlashgan zamonaviy sharoitda menejerlar nafaqat an'anaviy boshqaruv funksiyalarini, balki innovatsion yondashuv, strategik

qarorlarni tahlil qilish va raqamli jarayonlarni boshqarish kabi kompetensiyalarni ham mukammal egallashi lozim.

Mahalliy olimlar, jumladan, A.S. Kucharov boshqaruv xodimlarining ijtimoiy-iqtisodiy kompetensiyalarini shakllantirish boshqaruv samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydi. Uning ta’kidlashicha, professional yetuklik bilan birga, rahbarlar bevosita kommunikativ, psixologik, motivatsion va tashkiliy ko’nikmalarga ham ega bo’lishi zarur. Bularning barchasi menejerning boshqaruv salohiyatini belgilaydi.

N.Q. Yo’ldoshev va M.M. Azlarova tomonidan ilgari surilgan qarashlarda boshqaruvni tashkil qilishda xodimlarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, ularning tashabbusini rag’batlantirish va motivatsion muhit yaratish korxonalar faoliyatini sezilarli darajada yaxshilashi qayd etiladi.

Xalqaro tadqiqotlarda ham (M. Mescon, F. Hedouri, M. Albert va boshqalar) menejer kompetensiyalari korxonaning uzoq muddatli muvaffaqiyatida hal qiluvchi omil sifatida qaraladi. Ular boshqaruv jarayonida qaror qabul qilish tezligi, strategik fikrlash, jamoani boshqarish hamda inson resurslaridan samarali foydalanish kabi ko’nikmalarni boshqaruvning asosiy elementi deb hisoblaydi.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, boshqaruv xodimlari qobiliyatlarini tizimli shakllantirish, ularni rivojlantirish va baholash mexanizmlarini takomillashtirish korxonalar salohiyatini yuksaltirishning eng muhim omillaridan biridir. Inson resurslari salohiyatidan to’liq foydalanish korxonaning ichki imkoniyatlarini real iqtisodiy natijalarga aylantirishga xizmat qiladi

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Mantiqiy tahlil;
- Taqqoslash va solishtirma tahlil;
- Ekspert baholash;
- Tizimli yondashuv;
- Diagnostik tahlil (boshqaruv kompetensiyalarini baholash modeli asosida).

Korxonalarda samarali faoliyat imkoniyatlarini amalga oshirish darajasi boshqaruv xodimlarining mavjud qobiliyatlaridan qay darajada tizimli va maqsadli foydalanilayotganiga bevosita bog’liqdir. Tadqiqot jarayonida boshqaruv xodimlari kompetensiyalarining korxonalar faoliyati samaradorligiga ta’siri baholanib, ularning foydalanish darajasi hamda rivojlanish imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, ko’plab korxonalarda boshqaruv xodimlarining bilim va tajribasi mavjud bo’lishiga qaramasdan, ushbu salohiyatdan foydalanish darajasi o’rtacha yoki past ko’rsatkichlarda qolmoqda. Buning asosiy sabablari sifatida boshqaruv kompetensiyalarini baholashning aniq mezonlari yo’qligi, motivatsiya mexanizmlarining sustligi hamda zamonaviy boshqaruv usullarining yetarli darajada qo’llanilmayotganligi aniqlandi.

1-jadval

Boshqaruv xodimlari kompetensiyalaridan foydalanish darajasi (diagnostik baholash asosida)

№	Kompetensiya turlari	Past daraja (%)	O’rtacha daraja (%)	Yuqori daraja (%)
1	Strategik fikrlash va rejalashtirish	28	46	26
2	Qaror qabul qilish qobiliyati	22	49	29
3	Tashkiliy va kommunikativ ko’nikmalar	18	44	38
4	Innovatsion yondashuv	35	41	24
5	Liderlik va motivatsiya berish	25	48	27

Jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, boshqaruv xodimlarining aksariyat qismida kompetensiyalar o’rtacha darajada shakllangan. Ayniqsa, innovatsion yondashuv va strategik fikrlash kompetensiyalarida past darajali ko’rsatkichlar yuqoriligi korxonalarda mavjud imkoniyatlarning to’liq ishga solinmayotganidan dalolat beradi.

Boshqaruv xodimlari kompetensiyalari darajasining taqsimlanishi (diagramma)

Yuqori daraja ██████████ 29%
 O‘rtacha daraja ██████████ 46%
 Past daraja ██████████ 25%

Mazkur diagramma boshqaruv xodimlari kompetensiyalarining asosiy qismi o‘rtacha darajada ekanini, biroq yuqori darajaga yetmaganini yaqqol ko‘rsatadi. Bu esa boshqaruv salohiyatini oshirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar mavjudligini anglatadi.

Tahlil davomida boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasi bilan korxonada faoliyati samaradorligi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Xususan, boshqaruv kompetensiyalari yuqori bo‘lgan bo‘linmalarda:

- mehnat unumdorligi oshgan;
- qaror qabul qilish tezlashgan;
- ichki resurslardan foydalanish samaradorligi yuqori bo‘lgan;
- jamoa ichidagi muvofiqlashtirish yaxshilangan.

2-jadval


Boshqaruv kompetensiyalari darajasiga ko‘ra samaradorlik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Past daraja	O‘rtacha daraja	Yuqori daraja
Mehnat unumdorligi	Past	O‘rtacha	Yuqori
Qaror qabul qilish tezligi	Sekin	Barqaror	Tez
Resurslardan foydalanish	Samarasiz	Qisman samarali	Samarali
Xodimlar motivatsiyasi	Past	O‘rtacha	Yuqori

Jadvaldan ko‘rinadiki, boshqaruv xodimlari qobiliyatlari rivojlangan sari korxonada faoliyatining barcha asosiy ko‘rsatkichlari yaxshilanib boradi. Bu holat boshqaruv salohiyatini oshirish samarali faoliyatning muhim omili ekanini tasdiqlaydi.

Boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan samarali foydalanish modeli (sxema)

Boshqaruv xodimi kompetensiyalari



Mazkur sxema boshqaruv xodimlari qobiliyatlarining korxonada samaradorligiga ta‘sir mexanizmini aks ettiradi. Undan ko‘rinib turibdiki, kompetensiyalarni rivojlantirish orqali samarali faoliyat imkoniyatlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish mumkin.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasini oshirish korxonaning ichki salohiyatini to‘liq ishga solish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va barqaror rivojlanishni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, korxonalarda samarali faoliyat imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda boshqaruv xodimlari qobiliyatlari muhim strategik resurs hisoblanadi. Boshqaruv xodimlarining bilim, malaka, tajriba va liderlik ko‘nikmalaridan to‘liq foydalanish korxonada ichki salohiyatini real iqtisodiy natijalarga aylantirish imkonini beradi.

Tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- boshqaruv xodimlari kompetensiyalaridan foydalanish darajasi korxonalar samaradorligiga bevosita ta’sir ko’rsatadi;
- kompetensiyalarni baholash va rivojlantirish tizimi mavjud bo’lmagan korxonalarda salohiyatdan foydalanish darajasi past bo’ladi;
- zamonaviy menejment usullarini qo’llash va strategik boshqaruv madaniyatini shakllantirish samarali faoliyatni ta’minlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasini oshirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Kompetensiyaga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish, bunda boshqaruv xodimlarining bilim, ko’nikma va tajribasi muntazam baholanib borilishi lozim.
2. Malaka oshirish va uzluksiz ta’lim dasturlarini rivojlantirish, zamonaviy menejment, raqamli boshqaruv va strategik fikrlash bo’yicha treninglarni kengaytirish.
3. Motivatsiya va rag’batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, boshqaruv xodimlarining tashabbuskorligi va innovatsion yondashuvlarini qo’llab-quvvatlash.
4. Delegatsiya va jamoaviy boshqaruvni rivojlantirish, qaror qabul qilish jarayonlariga quyi va o’rta bo’g’in rahbarlarini faol jalb etish.
5. Tashkilot madaniyatini mustahkamlash, ochiq muloqot, ishonch va mas’uliyatga asoslangan boshqaruv muhitini shakllantirish.

Mazkur takliflarni amaliyotga tatbiq etish boshqaruv xodimlari salohiyatidan samarali foydalanish imkonini yaratadi hamda korxonalarining barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Drucker, P.F. (2008). *The Effective Executive*. New York: Harper Business. – Menejment nazariyasi asoschisi P. Drucker ushbu asarda rahbar shaxsining samaradorligini belgilovchi omillar, qaror qabul qilish mexanizmlari va inson resurslarini boshqarishning klassik tamoyillarini yoritgan.
2. Kotler, F. (2019). *Marketing Management*. 15th Edition. Pearson Education. – Bu asar zamonaviy marketing va boshqaruv integratsiyasi, menejerlar uchun strategik fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishga oid metodlarni tahlil qiladi.
3. Nonaka, I., & Takeuchi, H. (1995). *The Knowledge-Creating Company: How Japanese Companies Create the Dynamics of Innovation*. Oxford University Press. – Yapon menejmentidagi bilim yaratish modeli (“knowledge management”) orqali korxonalar salohiyatini oshirish mexanizmlari izohlangan.
4. Hofstede, G. (2010). *Cultures and Organizations: Software of the Mind*. McGraw-Hill Education. – Xalqaro menejmentda madaniy omillar va ularning boshqaruv qarorlariga ta’siri tahlil qilinadi. Bu manba turli mamlakatlar boshqaruv madaniyatlarini solishtirishda muhim.
5. Northouse, P.G. (2016). *Leadership: Theory and Practice*. 7th Edition. SAGE Publications. – Yetakchilikning nazariy modellari, rahbarlik uslublari va jamoaviy liderlik konsepsiyasi chuqur tahlil qilingan.
6. Collins, J. (2001). *Good to Great: Why Some Companies Make the Leap and Others Don’t*. Harper Business. – Muallif ilg’or kompaniyalar tajribasi asosida samarali rahbarlik va strategik o’zgarishlarni amalga oshirish usullarini ochib beradi.
7. OECD (2023). *Competence Development and Leadership in Innovative Economies: OECD Analytical Report*. Paris: OECD Publishing. – Innovatsion iqtisodiyot sharoitida kompetensiyalarni rivojlantirish, liderlik va boshqaruvning global tendensiyalari bo’yicha so’nggi tahliliy ma’lumotlar keltirilgan.
8. Mintzberg, H. (2011). *Managing*. Berrett-Koehler Publishers. – Boshqaruv jarayonining amaliy modeli va rahbarlarning kundalik faoliyatidagi qaror qabul qilish bosqichlari tahlil qilinadi.
9. Schein, E.H. (2017). *Organizational Culture and Leadership*. 5th Edition. Wiley & Sons. – Tashkilot madaniyati va rahbarlik o’rtasidagi bog’liqlikni ochib beradi, ayniqsa jamoaviy boshqaruv madaniyatini shakllantirishda muhim nazariy manba hisoblanadi.

10. World Bank (2022). Human Capital Index 2022: Human Potential and Economic Growth. Washington D.C.: World Bank Group. – Inson kapitalining iqtisodiy o‘shidagi o‘rni va boshqaruv salohiyatini baholashning global ko‘rsatkichlari tahlil qilingan.

UDK: 338.4

**MAHALLIY XOMASHYO BAZASIGA EGA SANOAT KORXONALARIDA
INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR VA ULARNI
OSHIRISHNING VERTIKAL INTEGRATSIYA ASOSIDAGI OPTIMALLASHTIRILGAN
MODELI**

**ФАКТОРЫ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИЙ В
ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ С МЕСТНОЙ СЫРЬЕВОЙ БАЗОЙ, И
ОПТИМИЗИРОВАННАЯ МОДЕЛЬ ИХ РОСТА НА ОСНОВЕ ВЕРТИКАЛЬНОЙ
ИНТЕГРАЦИИ**

**FACTORS DETERMINING INVESTMENT EFFICIENCY IN INDUSTRIAL
ENTERPRISES WITH LOCAL RAW MATERIAL BASE AND AN OPTIMIZED MODEL
OF THEIR INCREASE BASED ON VERTICAL INTEGRATION**

Qayumova Shodiya Sobir qizi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti
Iqtisodiyot fakulteti “Moliya va kredit” kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi hamda vertikal integratsiya jarayonining investitsion natijalarni oshirishdagi roli ilmiy asosda ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: investitsiya samaradorligi, mahalliy xomashyo bazasi, vertikal integratsiya, qiymat zanjiri, tranzaksiya xarajatlari, tannarxni optimallashtirish, IRR, qo‘shilgan qiymat, ishlab chiqarish klasterlari, investitsiya riski, texnologik modernizatsiya, resurs barqarorligi.

В данной статье на основе системного подхода анализируются факторы, определяющие эффективность инвестиций в промышленных предприятиях с местной сырьевой базой, и научно раскрывается роль процесса вертикальной интеграции в повышении результатов инвестиций.

Ключевые слова: эффективность инвестиций, местная сырьевая база, вертикальная интеграция, цепочка создания стоимости, транзакционные издержки, оптимизация затрат, внутренняя норма доходности (IRR), добавленная стоимость, производственные кластеры, инвестиционный риск, технологическая модернизация, ресурсоустойчивость.

This article analyzes the factors determining investment efficiency in industrial enterprises with a local raw material base based on a systematic approach and scientifically reveals the role of the vertical integration process in increasing investment results.

Keywords: investment efficiency, local raw material base, vertical integration, value chain, transaction costs, cost optimization, IRR, added value, production clusters, investment risk, technological modernization, resource sustainability

Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi, raqobatbardoshligini oshirish va ishlab chiqarish hajmini kengaytirish jarayonida investitsiya faoliyatining samaradorligi hal qiluvchi omil sifatida maydonga chiqmoqda. Mahalliy xomashyo bazasiga ega ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiyotning asosiy tayanchi bo‘lib, ularning modernizatsiya, texnologik yangilanish va qo‘shilgan qiymat yaratish